



AMIR TEMUR TARIXCHI OLIMLAR NIGOHIDA

Jakbaraliyeva Zarina Sherali qizi

University of Business and Science

Tarix yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Sohibqiron Amir Temur shaxsini va uning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari hamda madaniy-ilmiy rivojlanishga qo'shgan hissasini tarixchi olimlarning turli qarashlari asosida tahlil qiladi. Maqolada G'arb va Sharq tarixchilari, xususan, Ibn Arabshoh, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ruy Gonsales de Klavixo, Gyustav Le Bon, Rene Groussest, va O'zbekistonlik olimlar Ibrohim Mo'minov, Ahmad Aliyev, Gaybulla Boboyorov kabi mutaxassislarining Temurga bergan baholari qiyosiy o'rganiladi.

Tadqiqot Temurning shafqatsiz istilochilik faoliyati bilan bir qatorda, uning ma'rifatparvarligi, bunyodkorlik ishlari, adolatli qonunlari ("Temur tuzuklari") va diplomatik aloqalariga e'tibor qaratilgan. Maqola bibliografik tahlil, komparativ metod va tarixiy-sistemali yondashuv asosida yozilgan bo'lib, Temur shaxsining murakkabligi va ko'p qirraliligini ochib berishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, tarixchilar, Temur tuzuklari, davlat boshqaruvi, madaniyat, harbiy yurishlar, diplomatiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется личность Сахибкирона Амира Темура и его вклад в государственное управление, военные походы, культурное и научное развитие на основе различных взглядов историков. В статье сравнительно изучаются оценки Тимура западными и восточными историками, в частности, Ибн Арабшахом, Шарафудином Али Яздием, Руи Гонсалесом де Клавихо,



Гюставом Лебоном, Рене Груссестом, а также узбекскими учеными, такими как Ибрагим Муминов, Ахмад Алиев, Гайбулла Бобоеров.

Исследование сосредоточено на жестокой завоевательной деятельности Тимура, а также на его просветительской деятельности, творчестве, справедливых законах («Уставы Темура») и дипломатических отношениях. Статья написана на основе библиографического анализа, сравнительных методов и историко-системного подхода и направлена на раскрытие сложности и многогранности личности Тимура.

Ключевые слова: Амир Темур, историки, указы Темура, государственное управление, культура, военные походы, дипломатия.

ANNOTATION

This article analyzes the personality of Sahibqiron Amir Temur and his contribution to state governance, military campaigns, and cultural and scientific development based on the different views of historical scholars. The article comparatively studies the assessments of Timur by Western and Eastern historians, in particular, Ibn Arabshah, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ruy Gonzalez de Clavijo, Gustave Le Bon, Rene Grousset, and Uzbek scholars such as Ibrahim Muminov, Ahmad Aliyev, Gaybulla Boboyorov.

The study focuses on Timur's brutal conquest activities, as well as his enlightenment, creative work, fair laws ("Temur's regulations") and diplomatic relations. The article is written on the basis of bibliographical analysis, comparative methods, and a historical-systematic approach, and aims to reveal the complexity and versatility of Timur's personality.

Keywords: Amir Temur, historians, Temur's decrees, state administration, culture, military campaigns, diplomacy.

KIRISH

Amir Temur, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Markaziy Osiyoda qudratli imperiya barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobidir. Uning nomi asrlar



davomida nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham chuqur qiziqish va munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Temurning shaxsiyati, davlat boshqaruvi usullari, harbiy yurishlari va bunyodkorlik faoliyati turli tarixchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ba'zilar uni shafqatsiz istilochi, millionlab insonlarning o'limiga sababchi bo'lgan zolim hukmdor sifatida tasvirlasa, boshqalar uni buyuk ma'rifatparvar, adolatli hukmdor, madaniyat homiysi va davlat quruvchi sifatida e'tirof etadilar. Ushbu qarashlarning xilma-xilligi Temur shaxsining o'ziga xos murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi.

Mazkur maqola Amir Temur shaxsiga nisbatan shakllangan turli tarixiy qarashlarni tahlil qilishga qaratilgan. Unda Sharq va G'arb olimlarining Temur haqidagi asarlari o'rganilib, ularning yondashuvlari, xulosalari va uslubiy farqlari ko'rsatib o'tiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – Temurning tarixiy rolini xolis baholash, uning faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlarini atroflicha ko'rib chiqish hamda uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini yoritishdan iborat. Bu borada, ayniqsa, O'zbekiston tarixshunosligida Temur davriga bo'lgan yangicha yondashuvlar va xalqning buyuk ajdodiga bo'lgan hurmati alohida ta'kidlanadi. Temur nafaqat o'z davrining eng qudratli sarkardasi, balki ilimli, zakovatli, davlatni idora etishda o'ziga xos tizim yaratgan ulug' shaxs sifatida zamonaviy dunyo uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi yoritiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ulug' Sohibqiron shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtirom beqiyosdir. Chunki, Sohibqiron Amir Temur, davlat va jamiyat boshqaruvida adolat o'rnatish va el-yurt manfaati yo'lida butun borlig'ini, hattoki o'z jonini beradigan hukmdorlar, davlat arboblari toifasiga kiradi. Buni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlaridan ham bilib olish mumkin: «Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deyilar. Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini hayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin».



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amir Temurga bag'ishlangan adabiyotlar juda boy va xilma-xildir. Ushbu tadqiqotda bir qator manbalar va ilmiy asarlar tahlil qilindi. Dastavval, Temur davriga oid asosiy manbalarga murojaat etildi. Bularga Temurning o'z hayoti haqida yozilgan "Temur tuzuklari" (garchi uning muallifligi borasida ba'zi tortishuvlar mavjud bo'lsa-da, bu asar Temur davri davlat boshqaruvi va ma'naviyatini tushunishda muhimdir), Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari kiradi. "Zafarnoma" Temurning g'alabalari va faoliyatini yuksak baholab, uni ideallashtirgan holda tasvirlaydi. Ibn Arabshohning "Ajoyib al-ma'qdur fi tarixi Taymur" asari esa aksincha, Temurni shafqatsiz, qonxo'r hukmdor sifatida ko'rsatadi. Bu ikki asar Temurga nisbatan ikki xil qarama-qarshi yondashuvning klassik namunasidir.

G'arb tarixchilaridan Gyustav Le Bon o'zining "Arab sivilizatsiyasi" asarida Temurga yuqori baho berib, uni Sharqning buyuk hukmdorlaridan biri deb hisoblaydi. Rene Groussestning "Cho'l imperiyasi" asari esa Temur imperiyasining ko'lamini va uning strategik ahamiyatini yoritadi. Ruy Gonsales de Klavixoning "Samarqandga sayohat kundaligi" Temur davrida Samarqandning gullab-yashnagan holatini va uning saroy hayotini betaraf nigoh bilan tasvirlagan. O'zbekistonlik olimlardan Ibrohim Mo'minovning "Amir Temur" nomli monografiyasi Temurshunoslikda katta burilish yasagan. Unda Temurning buyuk davlat arbobi, bunyodkor va ilm-fan homiysi sifatidagi roli ilmiy asosda isbotlangan. Ahmad Aliyevning "Amir Temur: qahramon va sarkarda" kabi asarlari Temurning harbiy dahosini ochib bergan bo'lsa, G'aybullaboy Boboyorovning ishlari Temur davri madaniy hayotini va uning ilmiy merosini chuqur tahlil qilgan. Jo'li Niyozovning "Amir Temur va Temuriylar davri tarixi" darsligi ham Temurshunoslikka oid so'nggi tadqiqotlarni o'zida jamlagan.

L.Lyangle Amir Temur shaxsi hamda uning olib brogan ichki va tashqi siyosati haqida juda ko'plab iliq fikrlarni bildirishgan, shu bilan birgalikda, mashhur



nemis mutafakkiri Gammer ham Sohibqironnig ajoyib fazilatlarini shunday ta'riflaydi: "Temurni Aleksandr Makedonskiy bilan tenglashtirish kerak. Bu taqqoslash ularning hayot yo'llari va erishgan yutuqlari nuqtayi nazaridangina emas, balki ularning insoniyligi, istilo qilinganyerlari ko'lami, jasurliklari va ularning kamsuqumliklari jihatidan ham o'xshashligidir".

Metodologik jihatdan, ushbu maqolada bibliografik tahlil asosiy usul sifatida qo'llaniladi. Ya'ni, turli manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar yig'ilib, tizimlashtirildi. Shuningdek, komparativ metod (qiyosiy tahlil) yordamida Sharq va G'arb tarixchilarining Temurga bo'lgan qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tarixiy-sistemali yondashuv esa Temur faoliyatini o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekstida kompleks o'rganish imkonini berdi. Maqolada induktiv va deduktiv usullar uyg'unlikda qo'llanilgan bo'lib, xususiy ma'lumotlardan umumiy xulosalarga erishilgan va umumiy qonuniyatlar orqali xususiy holatlar tushuntirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Temur shaxsi va uning faoliyati haqidagi munozaralar, asrlar davomida davom etib kelmoqda. Turli davr va mintaqalarning tarixchilari uni o'z nuqtai nazaridan baholaganlar.

Sharq tarixchilari nigohida: Sharafuddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida Temurni buyuk qahramon, adolatli podshoh va islom homiysi sifatida tasvirlagan. Uning asarida Temurning harbiy mahorati, strategik zakovati va g'alabalari ilohiylashtirilgan. Yazdiy asari Temur davri ideallashtirilgan portretining eng yorqin namunasidir. Masalan, Yazdiyning yozishicha, Temur har bir yurishini Allohning irodasi bilan bog'lagan va har bir g'alabani ilohiy yordam bilan izohlagan.

Ibn Arabshoh esa Temurning shafqatsizligini, vayronkor yurishlarini va qatliomlarini keskin tanqid qilgan. Uning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarida Temur zolim hukmdor, qonxo'r istilochi va Islomga qarshi bo'lgan kofir



sifatida tasvirlangan. Arabshohning yozishicha, Temur ko‘plab shaharlarni vayron qilib, aholisini qirib tashlagan, madaniy boyliklarni talon-taroj qilgan. Uning asari, Temurga nisbatan salbiy munosabatning yaqqol namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

G‘arb tarixchilari nigohida: Ruy Gonsales de Klavixo Kastiliya elchisi sifatida Temurning Samarqanddagi saroyida bo‘lgan. Uning kundaliklari Temur davri Samarqandining ulug‘vorligi, uning saroyidagi dabdaba, madaniy boyliklar va Temurning shaxsan o‘zi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Klavixo Temurni aqlli, tadbirkor va o‘z so‘zining ustidan chiqadigan hukmdor sifatida tasvirlagan. U Temurning ilm-fanga, qurilishga bo‘lgan qiziqishini ham qayd etgan.

Xiva ekspeditsiyasida qatnashgan podpolkovnik Mixail Ignat’yevich Ivanin (1801-1874)ning o‘zining “Mo‘g‘ul-totlarlar va O‘rta Osiyo xalqlarining Chingizxon hamda Amir Temur davrlaridagi harbiy san’atlari va istilolari haqida” nomli asarida Amir Temurning sarkardalik sanati asoslarini manbalar va qollanmalar asosida mufassal bayon etib beradi. Hamda ushbu so‘zlarni ko‘tarinki tarzda bayon etadi; “Hech bir xalq mo‘g‘ul-tatarlar chingizxon davrida va O‘rta Osiyo xalqlari Amir Temur davrida bosib olgan hududlari kabi bepoyon hududlarni bosib ololmagan va bu ishda ularerishgan tezkorlikka erisholmagan”.

Gyustav Le Bon o‘zining “Arab sivilizatsiyasi” asarida Temurni Sharqning eng buyuk shaxslaridan biri sifatida baholagan. U Temurning nafaqat harbiy dahosini, balki uning davlat boshqaruvi, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasini ham e’tirof etgan.

Rene Grousset o‘zining “Cho‘l imperiyasi” asarida Temur imperiyasining ko‘lamini va uning jahon tarixidagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan. U Temurni buyuk strateg va davlat quruvchi sifatida tasvirlagan, biroq uning yurishlaridagi shafqatsizliklarni ham yashirmagan.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda Temur shaxsiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Ilgari sovet mafkurasi ta’sirida u asosan istilochi sifatida



tasvirlangan bo'lsa, hozirgi kunda u milliy qahramon, buyuk davlat arbobi va bunyodkor sifatida e'zozlanadi.

Ibrohim Mo'minov o'zining "Amir Temur" monografiyasida Temurning buyukligini ilmiy asosda isbotlab berdi. U Temurning davlat qurilishidagi rolini, uning "Temur tuzuklari"dagi adolatli qonunlarini va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini yoritib berdi.

Ahmad Aliyev va Gaybulla Boboyorov kabi olimlar Temurning harbiy san'atini, diplomatiyasini, bunyodkorlik ishlarini va madaniy merosini chuqur tadqiq etishgan. Ular Temurning ilm-fan va san'atga homiylik qilganini, Samarqandni jahonning eng go'zal shaharlaridan biriga aylantirganini ta'kidlashgan.

Temur haqidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, uning shaxsi bir tomonlama baholanishi mumkin emas. U o'z davrining murakkab va ziddiyatli shaxsi bo'lgan. Bir tomondan, u millionlab odamlarning o'limiga sababchi bo'lgan shafqatsiz istilochi edi. Ikkinchi tomondan esa, u qudratli davlat barpo etgan, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirgan, Samarqandni jahonning eng yorqin markazlaridan biriga aylantirgan bunyodkor va ma'rifatparvar hukmdor edi.

XULOSA

Amir Temur shaxsi va uning tarixiy faoliyati – nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon tarixshunosligi uchun hamon dolzarb va munozarali mavzu bo'lib qolmoqda. Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sohibqironning obrazini bir tomonlama, ya'ni faqat zolim istilochi yoki faqat adolatli bunyodkor sifatida tasvirlash ilmga zid yondashuvdir. Haqiqat, doimo murakkab va ko'p qirrali bo'lib, Temurning shaxsiyatida ham, uning ulkan imperiyasining barpo etilishida ham, uning davlat boshqaruvi usullarida ham ana shu murakkablikni ko'rish mumkin.



Zamonaviy o'zbek tarixshunosligi, xususan, Ibrohim Mo'minov kabi olimlarning tadqiqotlari, Temurni milliy qahramon va buyuk davlat arbobi sifatida qayta tiklashga xizmat qildi. Uning shaxsi milliy g'urur va istiqlol ramzi sifatida e'zozlanmoqda. Bugungi kunda Temur nafaqat harbiy strateg, balkim bilimdon, adolatparvar va bunyodkor shaxs sifatida baholanmoqda. Uning davlat qurilishi, ilm-fan va madaniyatga bo'lgan e'tibori bugungi avlod uchun katta ibrat maktabidir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur shaxsi insoniyat tarixidagi eng murakkab va shu bilan birga, eng buyuk shaxslardan biri hisoblanadi. Uning faoliyati insoniyat taraqqiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq, uning davlat qurilishi, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, dunyo sivilizatsiyasiga ko'rsatgan ta'siri shubhasizdir. Temur merosi hali-hanuz chuqur o'rganishni talab qiladi va uning hayoti, faoliyati kelajak avlodlar uchun o'tmishdan saboq olish, davlat boshqaruvi va insoniyat qadriyatlari haqida chuqur mushohada yuritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur tuzuklari — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – B. 12-15, 23-28, 45-50.
2. Yazdiy, Sharafuddin Ali — Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 35-40, 100-110, 250-260.
3. Ibn Arabshoh — Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). – Toshkent: Fan, 1992. – B. 70-80, 150-160.
4. Klavixo, Ruy Gonsales de — Samarqandga sayohat kundaligi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 60-75, 120-130.
5. Mo'minov, Ibrohim — Amir Temur. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 20-25, 80-90, 140-150.
6. Aliyev, Ahmad — Amir Temur: qahramon va sarkarda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 45-55, 90-100.



7. Ivanov M.I. “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san’ati, strategiyasi va taktikasi”. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018. –B. 10.
8. Sodiqov H. “Amir Temur hayotidagi g’aroyibotlar”. “Art Flax” Toshkent. 2007. –B. 277.